

**INGLIZ TILI FANIDAN O‘QUVCHILARNING BILIM SAMARADORLIGINI  
OSHIRISHDA VA BO‘SH VAQTLARINI MAZMUNLI O‘TKAZISHDA  
“VIRTUAL CULTURAL EXCHANGE PROGRAMME” XALQARO  
LOYIHASINING AHAMIYATI**

**Laylo Xaydarova**

Buxoro davlat universiteti, Xorijiy filologiya fakulteti, Tarjimashunoslik va  
lingvodidaktika kafedrası o‘qituvchisi

Ta‘lim samaradorligini oshirishda eng avvalo nazariy va amaliy jihatdan to‘g‘ri tashkil etilgan dars muhim ahamiyatga ega. Har bir fan o‘qituvchisi darsiga puxta tayyorgarlik ko‘rib, barcha etaplarga rioya qilgan holda to‘g‘ri tashkil etsa va o‘quvchilarni o‘z faniga qiziqitira olsa, o‘z oldiga qo‘ygan maqsadiga erishadi va yuqori natijalarni qo‘lga kiritadi.

Samarali tashkil etilgan dars bilan bir qatorda darsdan tashqari tadbirlar, mashg‘ulotlar, loyihalar ham o‘quvchilarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etishga xizmat qiladi.

Biz ham o‘quvchilarimiz qiziqishini inobatga olib, 2012 yilda o‘z-o‘zini boshqaruvchi, o‘quvchilarning liderlik qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan “Perfect Generation” klubini tashkil etdik. Klubimiz 5 vazirlikdan tashkil topgan bo‘lib, o‘quvchilar o‘z iqtidorlariga ko‘ra o‘zlari istagan bo‘limga a‘zo bo‘lib, ijodkorliklarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘ldilar.

Har bir vazirlik o‘z yo‘nalishiga qarab, o‘quvchilarimizni kelajakdagi kasblariga ham poydevor bo‘ldi desak xato bo‘lmaydi. Masalan, ta‘lim vazirligi a‘zolari ingliz tilidan bilimlarini oshirib, turli tanlov, olimpiada va bilimlar bellashuvida faol ishtirok etib, faxrli o‘rinlarni egallashga muvaffaq bo‘ldilar. Jumladan, 2021-2022 o‘quv yilida 10-“V” sinf o‘quvchisi Fazlitdinov Asadbek, ingliz tilidan o‘tkazilgan olimpiadaning shahar bosqichida faxrli II o‘rinni egallab, viloyat bosqichida faol ishtirok etib, diplom bilan taqdirlandi. 11-“A” sinf o‘quvchisi Vohidov Komron xalqaro “Spelling bee” musobaqasining final bosqichida faol ishtirok etib, xalqaro sertifikat va kumush medalni qo‘lga kiritdi. 11-“B” sinf o‘quvchilari Hamidova Iroda, Tolibova Shahnoza va Rayimova Mushtariybegim BDU ingliz filologiyasi talabasi bo‘lishga muvaffaq bo‘lishdi. Sulaymonov Yorqin va Obidov Xumoyun kabi o‘quvchilarimiz IELTS imtihonlaridan muvaffaqiyatli o‘tib, Singapur Universitetiga qabul qilindi. Bundan tashqari 2019 yilda o‘tkazilgan “Ijodkor Yoshlar” festivalida ham 23- maktab jamoasi faol ishtirok etib, shahar bosqichida faxrli I o‘rinni, viloyat bosqichida esa faxrli III o‘rinni egalladi.

Klubimizning o‘z gazetasi ham mavjud bo‘lib, yosh muxbirlarimiz maktabimiz hayotiga oid muhim yangiliklarni ingliz tilida yoritib borishga harakat qilishadi. Ijodkor

o'quvchilarimiz tomonidan yozilgan she'r va maqolalar ham katta qiziqish bilan o'qib boriladi.

Klubimizda tashkil etilgan kutubxona ham o'quvchilarning kitob o'qishga bo'lgan qiziqishlarini oshirishga va dunyoqarashlarini oshirishga xizmat qilmoqda.

2016 yilda klubimiz faoliyati o'rganilib, respublika miqyosida ommalashtirilgani bizni juda ham quvontirdi.

Biz klubimiz faoliyatini kengaytirib, drama to'garagini ham tashkil etdik. O'quvchilarimizning aktyorlik qobiliyatlarini ham rivojlantirib, ingliz tilidagi ertak va hikoyalarni sahnalashtiryapmiz. Ertaklarni sahnalashtirish jarayoni haqiqatdan ham ijodiy muhitni shakllantirmoqda. O'quvchilar faqatgina ingliz tilini o'rganish bilan cheklanmasdan, qolgan qobiliyatlarini ham namoyon etishmoqda. Klubimizda o'quvchilar o'rtasida yaratilgan do'stona muhit ularning ijodiy izlanishlari va komillikka erishishlari uchun asosiy omildir. Biz klubimiz a'zolari bilan o'z dasturlarimizni tayyorlab, kichik tomoshabinlarimizga taqdim etyapmiz.

2022 yil fevral oyidan boshlab klubimiz a'zolari bilan "Virtual Cultural Exchange programme" loyihasida ishtirok etishni boshladik. Bu loyihaning asosiy maqsadi – turli davlat o'quvchilari o'rtasida do'stona muhitni yaratib, ularning ingliz tilidan og'zaki nutq qobiliyatlarini rivojlantirishdir. Har hafta ishtirokchilar o'z davlatlarining tarixi, madaniyati, urf-odat va an'analari haqida taqdimot tayyorlashadi va bir- birlariga o'z davlatlarining o'ziga xos xususiyatlarini tanishtirishadi. Biz loyiha doirasida Rossiya, Gretsiya, Myanma, Aljir, Hindiston kabi davlatlarning o'quvchilari bilan onlayn muloqotda bo'lib, fikr almashib, ko'pgina qiziqarli ma'lumotlarni bilib oldik. Bizning o'quvchilarimiz Vohidov Komron, Fazlitdinov Asadbek, Bekmurodova Sitara, Hamidov Sunnat va talabalarimiz Ibrohimova Jahona va Muyassarova Dilorom ona Vatanimiz O'zbekiston, uning tarixi, urf-odatlari, ta'lim tizimi, milliy kiyimlari, taomlari va siyosiy aloqalari haqida tayyorlagan taqdimotlari uchun sertifikat bilan taqdirlandilar.

Bu loyihada barcha o'quvchi-talabalarimiz katta qiziqish bilan ishtirok etishyapti va bu loyiha turli davlat yoshlari uchun fikr almashish, do'stlashish va bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish imkoniyatini yaratadi.

## REFERENCES

1. Nafisa K. Cognition and Communication in the Light of the New Paradigm //EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION. – 2021. – T. 1. – №. 2. – C. 214-217.
2. Nafisa, K. (2021). Semantics and Pragmatics of a Literary Text. Middle European Scientific Bulletin, 12, 374-378.

3. Khamroyevna, K. L. (2021). The Analysis of Education System in Uzbekistan: Challenges, Solutions and Statistical Analysis. European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630), 9, 90-94.
4. Khaydarova L., Joanna I. Dark Tourism: Understanding the concept and the demand of new experiences //ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603. – 2022. – T. 11. – №. 01. – C. 59-63.
- 5.Olimova D. Z (2021) TRANSFER OF MODALITY IN TRANSLATION (MODAL VERBS AND THEIR EQUIVALENTS, MODAL WORDS) Middle European Scientific Bulletin, Vol.12 Pp.220-223
6. Olimova D. Z (2020) The effectiveness of implementation of ICT in learning process .European Scholar Journal (ESJ) Vol.1 No. 4. Pp. 9-11.